

**FARG`ONA HUDUDI DARAXT VA BUTALARI SHIRALARINING
TARQALISHI VA MIQDORIY TAQSIMLANISHI**

*Qayumova Oygul Ismoiljonovna
Komilova Xolidaxon Muhammadjonovna
Farg'ona davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg`ona hududidagi manzarali daraxt va butalarning zararkurada shiralari haqida ma'lumot keltirilgan. Ushbu zarakuralarning miqdoriy ko'rsatkichlari, zarakurandalik xususiyatlar, klassifikatsiyasi haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Phylloxeridae, Mindaridae, Thelaxidae, Phloemyzidae, Hormaphididae, Pemphigus napaeus, P.populi, P.populinigrae, P.protospirae, P.vesicarius.*

Tadqiqotlarimiz hamda sohaga doir bir qator ilmiy manbalar tahlilarni natijasiga ko'ra shiralarning Phylloxeridae, Mindaridae, Thelaxidae, Phloemyzidae, Hormaphididae oilalari vakillari O`rta Osiyoning O`zbekistonga chegaradosh hududlarida tarqalgan (Narzikulov, 1962; Shaposhnikov. Gabrid, 1987; Gabrid, 1988, 1989; Kadrbekov, 1992; 1993; Vasman, 1993), Farg`ona hududi daraxt va butalarida quydagi oilalar vakillari uchramaydi.

	Oilalar nomi	Urug`lar soni	Turlar soni
.	Chaitophoridae	2	6
.	Drepanosiphidae	2	2
.	Lachnidae	3	5
.	Pemphigidae	5	14

Umuman, mazkur mintqa afikompleksida turlar sonining yuqoriligi bilan ajralib turuvchi urug`lar 8 ta bo`lib, ular faunadagi turlarning (53 turi) tashkil etadi. Qolgan urug`larning 6 tasi 2 tadan (12 tur,) va 26 tasi bittadan turga ega.

Farg`ona hududi daraxt va butalarida Aphis L. urug'iga mansub 10 ta, tur Pemphigus Hart 7 ta, Chaitophorus Koch, Cavariella del Guerc 9 ta, Tetraneura Hart, Eulachnus del Guerc, Pterocomma Buckt, Hyadaphis Kirk, Cinarra Curt 2 ta, Dysaphis Born, Brachycaudus van der Goot, Rhopalosiphum Koch, Amphorophora Buckt, Prociphilus Koch, Periphyllus van der Hoev, Brachyunguis Das, Kaltenbachiella Schout, Tuberculachnus, Tuberculatus Mordv Mordv, Myzaphis van der Goot, Semiaphis van der Goot, Myzus Pass, Cryptomyzus Ocstl, Metopolophium Mordv, Hyperomyzus Born, Macrosiphum Pass, Tinocallis Mats, Liosomaphis Walk,

Cavariella del Guerc 1 ta dan tur uchraydi.

O`zbekistonda terak shiralari turlarga boy bo`lib, *Pemphigus napaeus*, *P.populi*, *P.populinigrae*, *P.protospirae*, *P.vesicarius* kabi pemfiglar birinchi marta Farg`ona hududida qayd etilgan.

Prociphilus umarovi Janubiy Qozog`iston (Yuxnevich, 1974), Oloy va Chotqol tizmalari, Qirg`iz Olatoodan topilgan bo`lib, Farg`ona vodiysining tog` oldi va past tekisliklariga qadar tarqalgan (Axmedov, 1978; Muxamediev, Axmedov, 1982). *Amphorophora catharinare* tog` oldi va tog`li hududlarda yashab katta koloniyalarni hosil qilmasligi e`tirof etilgan (Narzikulov, Umarov, 1969). O`zbekiston hududida esa u yovvoyi va madaniy atirgullarda ko`plab uchrashligi, bu bilan uning pasttekislik sharoitida ham bemalol yashay olishligi qayd etilgan.

Chaitophorus shiralari, ayniqsa, *Ch.leucomelas*, *Ch.populialbae* barcha mintaqalar bo`ylab keng tarqalganligi bilan ajralib turadi (Mamontova, 1950, 1955; Borner, 1952 a; Naumann-Etienne, Remaudiere, 1995).

Palearktik turlar *Pterocomma pilosum* va *P.populeum* shiralari Farg`ona hududida ko`p uchraydi.

Liosomaphis turanicus shirasi zirklarda yashab zarar keltiradi. Tog`li hududlar sharoitida yashaydigan mazkur turlarni (Narzikulov, Umarov, 1969; Narzikulov, Daniyarova, 1990; Axmedov, 1995) Farg`ona vohasida ham tarqalganligi kuzatildi.

Tadqiqotlar davomida Cavariella urug`ining mazkur hududda to`rttala turi ham (*S. aegopodii*, *C.archangelicae*, *C.pastinacae*, *C.theobaldi*) uchrashligi qayd etildi.

Cryptomyzus asiatica, *Hyperomyzus lactucae* shiralarning ekologik valentligi keng bo`lib, Markaziy Osiyoning barcha mintaqalari bo`ylab tarqalgan.

Mahalliy shart-sharoitlarga bog`liq holda bu shiralarning rivojlanishi, biologiyasi, miqdor zichligini o`zgarishiga oid ma`lumotlar quyida o`z ifodasini topgan.

Acyrthosiphon sophorae Narzikulov et Umarov, 1970 yapon saforasi (*Sophora japonica*) bachkilarida, novda uchlari va barglarida oziqlanadi.

Amegosiphon platicaudum Narzikulov, 1958 shirasi ozuqa o`simligi zirk (*Berberis integerrima*, *Berberis oblonga*) barglarining ostki tomonida katta koloniyalar shakllantirib oziqlanadi.

Amphorophora catharinae (Nevsky, 1928) nahmatak va atirgullarning (*Rosa domascena*, *R. fedtschenkoana*) novda uchlari zich to`dalarni hosil qilib oziqlanadi. Koloniyada yashil va pushti rangli shiralar uchraydi.

Aphidura bozhkoae Narzikulov, 1957 achchiq gilos (*Cerasus erythrocarpa*, *C. tianshanica*) barglarida oziqlanadi, zararlangan barglar egilib, g`ovaklashadi va sohta gall shaklini oladi.

Aphis catalpae Mamontova, 1953 katalpa (*Catalpa bignonioides*, *C. speciosa*) novda uchlari, barg plastinkasining osti tomoni va gullarida juda katta, zich koloniyalar shaklida uchraydi. Yoz o`rtalariga kelib, shiralar miqdor zichligi eng yuqori nuqtasiga

ko`tariladi va natijada katalpaning yirik barg plastinkalari bujmaloqlanib quriydi. Zararlanmagan barglarning yuzasi shaltoqlanib, kuchli ifloslanadi. Bu shira monofag bo`lib, uning to`liq hayot sikli katalpada o`tadi.

Aphis farinosa Gmelin, 1790 tollar (*Salix alba*, *S.nigra*, *S.babilonica*, *S.australior*, *S.songoriea*, *S.wilhdmsiana*) yashil novdalarining uchlarida va barglarida katta-katta to`dalar shaklida uchraydi. Qurama va CHotqol tog` tizmalarida qayd etildi. U keng tarqalgan turlar sirasiga kiradi.

Aphis pomi De Geer, 1773 shirasi olma (*Malus domestica*), nok (*Prunus communis*) va irg`ay (*Cotoniaster*) barglarining ostki tomoni va yosh novdalarining uchida katta koloniyalar hosil qilib yashaydi.

Aphis spiraeophila Patch, 1914 tobulg`i (*Spiraea hypericifolia*, *Spiraea crenata*) shiralaridan biri, dalachoybarg tobulg`i (*Spiraea teichocardus*) yosh novdalarining yuqori qismi va barglarida oziqlanadi (2-3.06.2003, Ertoshsoy; 20.06.2004, Sardala).

Avicennina sogdiana Narzikulov, 1957 shilvi (*Lonicera simulatrix*) barglarining ostki tomonida va novda uchlarida oziqlanadi.

Brachycaudus cardui (Linneus, 1758) asoschilari va qanotsiz tirik tug`uvchi urg`ochi shiralar olcha (*Cerasus tianschanica*) bargining orqa tomonida zich to`dalarni hosil qilib oziqlanadi. Zararlangan barglar kuchli bujmaloqlanadi. Mavsum davomida shira koloniyalari urg`ochi tirik tug`uvchilar va ularning sirkalaridan iborat bo`ladi.

Brevicoryne lonicerina Mukhamediev et Akhmedov, 1980 birgina ozuqa o`simligi shilvi (*Lonicera anisotricha*) bilan bog`liq holda G`arbiy Tyonshonda ham uchraydi. U barglarning yuzasida oziqlanib, ularni deformasiyalanishi va sarg`ayishiga sabab bo`ladi.

Brevicoryne shaposhnikovii Narzikulov, 1957 shirasi ham ozuqa o`simligi shilvi (*Lonicera altmanii*, *L.braeteolaris*) barglarining yuzasida oziqlanadi, zararlangan barglar bujmaloqlanib sarg`ayadi. M.N.Narziqulov bu turning barcha formalarini iyun oyining o`rtalaridayoq qayd etgan.

Capitophorus archangelskii Nevsky, 1928 jiydalar (*Elacagnus angustifolia*, *E. ossidentalis*) barglarining ustki va ostki tomonida hamda novda uchlarida katta koloniyalarni hosil qilib ko`payadi.

Cavariella aegopodii (Scopoli, 1763) tollar (*Salix alba*, *S.nigra*) bargining ostki tomonida ko`payadi va soyabonguldoshlar (*Aegopodium alpestre*)ga o`tib yashaydi.

Cavariella aquatica Gillette and Bragg, 1916 G`arbiy Tyanshanda keng tarqalgan, tollar (*Salix alba*, *S.nigra*) barglarining ostki tomonida yashaydi.

Cavariella archangelicae (Scopoli, 1763) bahor oylarida tollar (*Salix alba*, *S. babylonica*, *S. nigra*)da rivojlanadi va soyabonguldoshlarning qator vakillari (*Conium maculatum*, *Chaerophyllum temulum*, *Angelica atropurpureae*, *Carum carvi*)ga uchib o`tib ularning gul savatchalarida zich koloniyalarni hosil qiladi.

Cavariella pastinacae Linnaeus, 1758 tollar (*Salix alba*, *S. babylonica*)da, yoz

mavsumida soyabonguldoshlar vakillariga (*Scandix pectenvenaris*, *Turgenia latifolia*) o`tib yashaydi.

Cavariella theobaldi (Gillette and Bragg, 1918) tollar (*Salix alba*, *S. babylonica*, *S. nigra*)ning barglari ostki tomonida oziqlanadi, yoz mavsumida leman gulpari (*Heracleum lehmannianum*)ga o`tib yashaydi.

Chaitophorus capreae (Mosley, 1841) tol (*Salix alba*, *S. babilonica*, *S. australior*, *S. wilhelmsiana*) bargining ostki va ustki tomonida yashaydi. To`dalari o`rtacha kattalikda bo`ladi.

Chaitophorus leucomelas Koch, 1854 teraklar (*Populus pyramidalis*) bargining ostki tomonida butun mavsum davomida uchraydi.

Chaitophorus populeti (Panzer, 1801) oq terak (*Populus alba*) bargining ostki tomonida siyrak koloniyalar hosil qiladi.

Chaitophorus populialbae (Boyer de Fonscolombe, 1841) oq terakning (*Populus alba*) barglari va novda uchlarida yashab zarar yetkazadi.

Chaitophorus pruinosa Narzikulov, 1954 cho`l teragi – turang`i (*Populus pruinosa*) o`sayotgan suv inshootlari bo`ylarida uchraydi. SHiralar barglarning ostki tomoni bo`ylab zich to`dalarni hosil qiladi. May oyining oxiridan boshlab koloniyalarda qanotsiz va qanotli tirik tug`uvchi urg`ochilar kuz mavsumi o`rtalariga qadar yashaydi. Oktyabrning ikkinchi yarmidan to`dalarda erkak va tuxum qo`yuvchi urg`ochilar qayd etildi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1.Yuldasheva, S. K., Azamov, O. S., Gulomov, S. Y., & Mukhammedov, M. M. (2021). The function of regulations quantity nuts afids with entomofags. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 393-397.

2.Shermatov, M., Botirov, E., Mukhammedov, M., Qayumova, O., Mirzaeva, Z., & Sotvoldieva, G. (2021). Distribution of Butterflies of the Family Sphingidae (Insecta, Lepidoptera) in the Fergana Valley. International Journal of Virology and Molecular Biology, 10(2), 27-33.

3.Yuldasheva, S. K., & Mukhammedov, M. M. GNA (2022). Dependence of Vertical and Horizontal Distribution of Juice in Nature on Soil-Climate Conditions. RA Journal of Applied Research, 8(01), 50-52.

4.Muhammedov, M. M., A`zamov, O., Xamidov, A., & Alimdjanova, M. (2021, July). BIOLOGY AND COMPOSITION OF ICHTHYOFAUNA OF LAKE SARYKAMYSH. In Конференции.

5.BALIQCCHILIK HOVUZLARIDA FITOLANKTONNING SHAKLLANISHI VA ULARNING MIQDORIY KO`RSATGICHLARI Y Abutolib, M Mo`minjon World of Science 6 (4), 187-191

6.Botirov, E. A. (2022). JANUBIY FARG`ONA AGROTSENOZLARI

TUNLAM KAPALAKLARI (LEPIDOPTERA: NOCTUIDAE) FAUNASI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 1276-1283.

7 Mo'minjon, M., & Abutolib, Y. (2023). BALQIQCHILIK HOVUZLARINING GIDROKIMYOVIY TAHLILI. *World of Science*, 6(4), 192-196.

8. Мухаммедов, М. (2023). К ВОПРОСУ О БИОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВАХ И ПЕРСПЕКТИВАХ ОРГАНИЗАЦИИ И РЫБНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(23), 270-272.

9. Abutolib, Y., & Mo'minjon, M. (2023). TURLI SUV HAVZALARIDAGI FITOPLANKTONNING TUR TARKIBI. *Scientific Impulse*, 1(9), 110-118.

10. Abutolib, Y., & Mo'minjon, M. (2023). TURLI SUV HAVZALARIDAGI FITOPLANKTONNING TUR TARKIBI. *Scientific Impulse*, 1(9), 110-118.

11. Шерматов, М. Р., & Ботиров, Э. А. (2022). ТУНЛАМ КАПАЛАКЛАРИНИНГ (LEPIDOPTERA: NOCTUOIDEA) ОЗУҚА СПЕКТРИГА ОИД. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 78-84.

12. Rakhmatjonovich, S. M., Arabboyevich, B. E., & Dilmurod o'g'li, A. B. (2022). Distribution Characteristics of Pyralid Moths (Lepidoptera: Pyralidae, Crambidae) in the Agroecosystems of the Fergana Valley. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 10, 79-84.

13. Malikjon, S., & Nigoraxon, O. (2022). "FARGONA SHAHRIDA IQLIMLASHTIRILGAN DARAXT VA BUTALAR SHIRALARINING (HOMOPTERA, APHIDINEA) FAUNASI, BIOLOGIYASI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 17(1), 171-174.

14. Shermatov, M. R. (2022). FARG'ONA VODIYSI TANGACHAQANOTLI HASHAROTLAR (LEPIDOPTERA) FAUNASINING AGROEKOTIZIMLARDA TAQSIMLANISH XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 566-576.

15. Botirov, E. A. (2022). JANUBIY FARG'ONA AGROTSENOZLARI TUNLAM KAPALAKLARI (LEPIDOPTERA: NOCTUIDAE) FAUNASI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 1276-1283.

16. Шерматов, М. Р. (2021). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АГРОЭКОТИЗИМЛАРИ ТУНЛАМСИМОН ТАНГАЧАҚАНОТЛИЛАРИ (INSECTA, NOCTUOIDEA) ФАУНАСИ. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1014-1025.

17. Shermatov, M. R., Abdikaxorov, B. D. O. G. L., & Abdikaxorova, D. M. Q. (2022). FARG'ONA VODIYSINING OZUQA EKINLARI TANGACHA QANOTLI

HASHAROTLAR (LEPIDOPTERA) FAUNASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 245-254.

18. Зокиров, И. И., & Шерматов, М. Р. (2013). ЭНТОМОКОМПЛЕКСЫ АДЫРНЫХ ЗОН ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. In *Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов* (pp. 100-101).

19. ШЕРМАТОВ, М., & СОДИҚОВА, М. АНЖИР ПАРВОНАСИ (LEPIDOPTERA CHOREUTIDAE) НИНГ БИОЛОГИЯСИ. *ЎЗБЕКИСТОН АГРАР ФАНИ ХАБАРНОМАСИ*, 72.

20. Мирзахалилов, М. М. Ў. (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ СОСТОЯНИЕ ПРУДОВ РЫБОВОДНЫХ ХОЗЯЙСТВ И СЕЗОННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ИХ. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 108-113.

21. Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Биология фанини ўқитишда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш. *Общество и инновации*, 2(4/S), 42-45.

22. Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Использование технологии проблемного обучения в преподавании биологии. *Общество и инновации*, 2(4/S), 42-45.

23. Kholikov, M. Y., Bekchonova, M. F., Kayumova, O. I., Yoqubov, A. A., & Usmanova, T. E. (2021). Protection of animals from the attack of blood-sucking pincers. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 211-215.